

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI  
SUD-EKSPERTLIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**MUHR VA SHTAMPLARDAN XAVFSIZ FOYDALANISH  
BO'YICHA TAVSIYALAR**

*(Fuqarolar uchun amaliy qo'llanma)*



Toshkent – 2023

## **Mualliflar:**

- S. Kudratov** Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, 2-darajali yurist
- A. G‘ofurjonov** Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, 2-darajali yurist
- F. Isomiddinov** Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi eksperti, 3-darajali yurist

**“Muhr va shtamplardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha tavsiyalar”**  
(fuqarolar uchun amaliy qo‘llanma).

Ushbu amaliy qo‘llanma fuqarolar va jamoatchilik vakillarini muhr va shtamplardan xavfsiz foydalanish haqida ilk tushuncha va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda sud ekspertiza muassasalari muhim o'rinnegallaydi.

Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256сон Farmon alohida o'ringa ega.

Mazkur Farmonga muvofiq, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga shartnomalar asosida, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq sud-ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish huquqi berildi.

Hukumatning tegishli qarori bilan 51 xil sud ekspertizasi turlarini o'z ichiga olgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlandi hamda tadqiqot natijalari yuzasidan mutaxassis fikri beriladi.

Mazkur huquq kelgusida jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlarida yaqindan ko'mak ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ushbu amaliy qo'llanma fuqarolar va jamoatchilik vakillarini muhr va shtamplardan xavfsiz foydalanish haqida ilk tushuncha va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo'llanma bilan tanishish orqali fuqarolar muhr va shtamplardan xavfsiz foydalanish bo'yicha umumiy tushunchalarga ega bo'lib, muhr va shtamplarning tushunchalari, turlari, ularni qalbakilashtiish usullari, muhr va shtamplarni saqlash, sud ekspertizasini tayinlash sabablari, uni o'tkazish muddatlari va bunday ekspertizada hal etiladigan savollar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

## **1. MUHR VA SHTAMPLAR UMUMIY TUSHUNCHASI VA TURLARI.**

**Muhr va shtamplar hujjatlarni qalbakilashtirishdan saqlash uchun himoya vositasi – muhr egasining imzosini tasdiqlovchi bosma shakli hisoblanadi.** Ularning hujjatlardagi akslari hujjatlarda bayon qilingan faktlarni va hujjatning rasmiy tabiatini tasdiqlash uchun xizmat qiladi.

**Muhr** - vakolatli shaxs tomonidan u ifodalayotgan maqsadi yoki boshqa axborotning haqiqiyligini qo'shimcha ravishda rasman tasdiqlash uchun ishlataladigan, tayyorlanishi, saqlanishi va foydalanimishiga alohida tartib belgilangan vosita.

**Shtamp** - tayyorlanishi, saqlanishi va foydalanimishiga alohida tartib belgilangan, axborotni tasdiqlash yoki hujjatlarni ro'yxatga olish va tashkilotning rekvizitlari ko'rsatilgan vositasi. Shtamplar burchakli va ro'yxatga olish (hisobga olish) shtamplarga bo'linadi.

**Bugungi kunda hujjatlar ostidagi imzolarni tasdiqlash uchun ishlataladigan quyidagi turdag'i muhrlar mavjud:**

**O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi aks ettirilgan muhrlar;**

**yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkor subyektlarining muhrlari;**

**yordamchi muhrlar.**

- O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlar davlat organlari va alohida vakolatlarga ega bo'lgan tashkilotlar, shuningdek fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar tomonidan qo'llaniladi.

**O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri tushirilgan muhr namunasi**



1-rasm.



2-rasm.

- Muhrlarning asosiy turlari barcha mulkchilik shaklidagi tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qo'llaniladi. Bugungi kunda ko'plab korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar shartnomalar tuzish va boshqa muhim hujjatlarni imzolashda muammolarni bartaraf etish uchun asosan muhrdan foydalanishni afzal ko'rishadi. Muhr hujjatni imzolagan shaxsning imzosini tasdiqlash uchun ishlataladi.

### **Quyidagi ma'lumotlar muhrda aks ettirilgan bo'lishi kerak:**

- tashkilotning davlat tilidagi to'liq nomi;
- tashkilot joylashgan joyi;
- davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlarda tashkilotining yuqori turuvchi organing nomi to'liq ko'rsatilishi shart.

### **Yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkor subyekt muhrining namunasi**



1



2



3



5



6



7



9



10




11

3-rasm.

- Yordamchi muhrlardan sertifikatlar, ishga oid hujjat nusxalari, turli xil bayonotlar va buxgalteriya hujjatlarini tasdiqlash uchun foydalanish mumkin. Hujjatlar uchun muhrlarning ushbu turlari tashkilot ichida qo'llaniladi va ularda tashkilot bo'limi nomi va muhrning maqsadiga oid ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin. Masalan, "Ma'lumot uchun", "Hisob-kitoblar uchun", "Buxgalteriya" yoki "Kotibiyat".

### **Yordamchi muhr namunasi**



4-rasm.

- Burchakli shtamp yuridik shaxs nomidan kirim va chiqim hujjatlarga qo'yiladigan shtamp hisoblanadi.

### Burchakli shtamplar namunasi

<p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</p> <p><b>XO'JALIK BOSHQARMASI</b></p> <p>20__YIL __ " _____ № _____ 100033, Toshkent sh. Jo'rabej Ostonov ko'chasi, 40</p>	<p>O'ZBEKISTON TRANSPORT, YO'L VA KAPITAL QURILISH, QURILISH INDUSTRIYASI XODIMLARI KASABA UYUSHMASI TOSHKENT SHAHAR KENGASHI</p> <p>TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI KASABA UYUSHMA QO'MITASI</p> <p>20__YIL __ " _____ № _____ 100011, TOSHKENT SH NAVOIY KO'CHASI, 13 TEL.: 241-15-34</p>	<p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR CHILONZOR TUMANI</p> <p><b>FARHOD-OMAD KOMMUNAL XUSUSIY UY-JOY MULKDORLAR SHIRKATI</b></p> <p>20__YIL __ " _____ № _____ FARXOD KO'CHASI, 17A-UY 92-XONADON</p>
<p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRIDAGI BUYUK BRITANIYA SHIRKATINING VAKOLATXONASI</p> <p><b>Apoyo Trade &amp; Investments Limited</b></p> <p>REPRESENTATIVE OFFICE OF FIRM (GREAT BRITAIN) IN TASHKENT THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN</p> <p>20__YIL __ " _____ № _____</p>	<p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI TOSHKENT SHAHAR YAKKASAROV TUMANIDAGI</p> <p><b>127-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI</b></p> <p>20__YIL __ " _____ № _____ BOSHLIQ MAVZESI</p>	

5-rasm.

## 2. MUHR VA SHTAMPLARNING QALBAKILASHTIRISH USULLARI.

Bugungi zamонавији техник вositalar o'z rivojlanishining cho'qqisiga erishgan bir davrda istalgan turdagи hujjatlarni qalbakilashtirish imkonini beruvchi техник вositalar yaratilgan. Shu sababdan mamlakatimizda hujjatlarni qalbakilashtirish bilan bog'liq jinoyatlar tendensiyasi yildan-yilga ortib bormoqda.

*Ma'lumot o'rnidni, 2022-2023 yillarda Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlarning aksariyatini firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish, kabi jinoyatlar tashkil etgan.*

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi tizimidagi sud ekspertiza muassasalarining ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan ekspertiza tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, **bugungi kunda hujjatlardagi muhrlar eng ko‘p qalbakilashtirilayotgan rekvizitlardan biri hisoblanadi.**

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasiga ko‘ra hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish soxtalashtiruvchining o‘zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishi yoxud bunday hujjatlarni sotishi, shunday maqsadlarda korxona, muassasa yoki tashkilotning qalbaki shtamplari, muhrlari, blankalarini tayyorlash yoxud sotish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmisht soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

#### O‘sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, – ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, undan foydalanish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanalishi belgilangan.



**Rekvizit uchun eng muhim talab** - bu unda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning ishonchliligi, boshqacha aytganda, uning haqiqiyligi. Rekvizitlarga o‘zgartirishlar kiritish, bu rekvizitlarda bo‘lmasligi kerak bo‘lgan uning dastlabki qo‘srimcha elementlarni joylashtirish hujatlarni texnik soxtalashtirish hisoblanadi.

**Quyidagi rekvizitlar ko‘pincha soxtalashtiriladi:**

- muhr va shtamplarning rekvizitlari;
- Imzolar;
- Chop etish qurilmasi (printer) yordamida yaratilgan matn

**Qo‘yilishi shart bo‘lgan asosiy rekvizitlar:**



**Muhrlar va shtamplarning shakli:**

**Gerbli muhrlar dumaloq shaklga ega;**

**Oddiy muhrlar yumaloq, tasvirlar va uchburchak shaklga ega;**

**Shtamplar to‘rt va undan ortiq burchakli yoki kvadrat shaklida bo‘lib, ramka bilan chegaralanishi yoki chegaralanmasligi mumkin.**

Muhrlar va shtamplarning o‘zi kauchuk, polimer materiallardan va metalldan tayyorlanishi mumkin.

Texnologiyaga qarab, polimerli, qo‘lda kesish uchun varaqli kauchuk, vulkanizatsiya uchun xom kauchuk va lazerli o‘yma uchun qattiq kauchuk qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, muhrlar qo‘yidagi toifalarga ham bo‘linadi:



## Muhrlar va shtamplarni tayyorlashning asosiy usullari:

Bosish va vulkanizatsiya usuli;

Fotopolimer texnologiyasi usuli;



Qo'lda kesish;

Lazerli o'yma usuli;

Mikroporozli materiallarni pishirish usuli.

Hujjatning muhim tafsilotlari bo'lgan muhr va shtamplarni qalbakilashtirish quyidagi juda keng tarqalgan usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- qo'lda chizilgan qog'oz klishesidan foydalanish;
- asl hujjatlardan nam nusxa ko'chirish;
- qo'l bola klishedan foydalanish;
- tipografik shriftlarni terish orqali tayyorlangan klishelardan foydalanish;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

### Muhr va shtamplarni aniqlash (identifikasiyasi)

Haqiqiy muhrni soxta muhrdan ajratishga imkon beruvchi asosiy xususiyatlar:

- o'lchamlari;
- asl nusxada avtomatik ravishda yuzaga keladigan kichik nuqsonlarning mavjudligi nusxa ko'chirishda yo'q qilinadi;
- asl nusxada mavjud bo'lmagan nusxani ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan kichik nuqsonlar;
- soxta muhrlarni tayyorlashda imloviy va texnik xatolarning mavjudligi.



7-rasm.

## **Muhr va shtamplardan foydalanish va saqlash bo‘yicha minimal tavsiyalar.**


Tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar asosiy muhr tashkilot rahbarida bo‘lishi va uning seyfida saqlanishi kerak. Tashkilot rahbari mehnat ta’tiliga chiqqanida va (yoki) mehnatga layoqatsiz bo‘lgan davrda muhrdan foydalanish bo‘yicha o‘zining vakolatlarini o‘rinbosarga yoki ma’sul xodimga dalolatnama asosida topshirishi mumkin.

Yordamchi muhrlar va shtamplardan foydalanish hamda uni saqlash tashkilotning mas’ul xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yordamchi shtamplar qulflanadigan stollarda saqlanadi. Asosiy, yordamchi muhrlar va shtamplar muhrlangan seyflarda (metall shkaflarda) saqlanadi, ularga muhr va shtamplarni qabul qilgan xodim ularning saqlanishi uchun javobgardir.

Muhr ishlab chiqaruvchi korxonalar biror bir tashkilotning muhrini ishlab chiqarishdan oldin ushbu tashkilotning hujjatlari va rahbarining roziligini oladi. Agar muhr yo‘qolgan bo‘lsa uning dublikatini yasatishdan oldin gazeta va boshqa ommaviy axborot vositalariga muhr yo‘qolganligi bo‘yicha e’lon berilishi lozim.

Shu bilan birga, muhr ishlab chiqaruvchi tashkilot tadqim etilgan hujjatlar asosida dublikat muhrga “D” yoki “2” belgisini joylashtirishi lozim.



**8-rasm.**

## **3. MUHR VA SHTAMPLAR TEXNIK-KRIMINALISTIK EKSPERTIZASI TAYINLASH ASOSLARI VA MUTAXASSIS FIKRI.**

«Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonunning 17-moddasiga ko‘ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o‘tkazish asoslaridir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining

2021-yil 22-noyabrdagi 706-son qarorlariga muvofiq, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan, **51 turdagি sud-ekspertiza tadqiqotlarini** o'tkazishga ruxsat berish belgilangan. Bunda, tadqiqot natijalariga ko'ra **mutaxassis fikri** taqdim etiladi.

Bugungi kunda davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazilib, natijasiga ko'ra mutaxassis fikri taqdim etilib kelinmoqda.

**Mutaxassis fikri** – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikridir.

**Mutaxassis fikrining kirish qismida** tadqiqot o'tkazilgan sana va joy, tadqiqot o'tkazishning asosi, tadqiqot buyurtmachisi (yuridik yoki jismoniy shaxs) to'g'risidagi ma'lumotlar, sud eksperti (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va tadqiqot o'tkazish topshirilgan davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar haqidagi ma'lumotlar, sud eksperti oldiga hal etish uchun qo'yilgan savollar, unga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallari qayd etiladi.

**Mutaxassis fikrining tadqiqot qismida** sud eksperti oldiga qo'yilgan har bir masala bo'yicha tadqiqot o'tkazish jarayoni, qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tadqiqotlarning mazmuni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo'yicha ilmiy tushuntirish beriladi.

**Mutaxassis fikrining fikr (yakunlovchi) qismida** tadqiqot natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar qayd etiladi.

Mazkur hujjat jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlarida yaqindan ko'mak ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

**Muhr va shtamplarning texnik-kriminalistik ekspertizasi. Ushbu turdagи ekspertizalar quyidagilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi:**

- hujjatlardagi muhr yoki shtamp akslarining hosil qilish usulini;
- aks hosil qilingan klischening (muhr, shtamp) turini;
- muhr (shtamp) aksiga o'zgartirish (chizish, o'chirish, yemirish usullari bilan) kiritilganlik holatini;
- muhr va matnning o'zaro kesishuvchi shtrixlarning bajarish ketma-ketligini;
- yaxshi ko'rinxaydigan muhr (shatmp) akslarining mazmunini tiklash;
- o'zgartirilgan muhr (shtamp) aksining dastlabki mazmunini aniqlash;
- muhr va shtamplarni izlarini bir yoki turli muhrlar bilan bosilganini identifikasiya qilish.

*Yuqorida keltirilgan savollar ro'yxati taxminiy hisoblanadi va ishning holatiga qarab ekspertizada hal etish uchun boshqa savollar qo'yilishi mumkin.*